XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-dekabr VII-15-147-4-65-K/25 Nishon tumani

Nishon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O`RQ-635-son Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 7-oktyabrdagi 67-4-65-F/25-son farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarning umumiy perimetri 832123 metr umumiy maydoni 211522,41 gektar ekanligi aniqlandi

Jumladan:

1. Yangi Nishon shahar umumiy perimetri 10304 metr, umumiy maydoni 536,96 gektar;

2. Tallimarjon shahar umumiy perimetri 8898 metr, umumiy maydoni 378,44 gektar;

3. Nishon shaharchasi umumiy perimetri 12337 metr, umumiy maydoni 390,53 gektar;

4. Guliston shaharchasi umumiy perimetri 6525 metr, umumiy maydoni 221,67 gektar;

5. Oqoltin shaharchasi umumiy perimetri 7916 metr, umumiy maydoni 260,55 gektar;

6. Sardoba shaharchasi umumiy perimetri 10220 metr, umumiy maydoni 368,68 gektar;

7. Paxtachi shaharchasi umumiy perimetri 14935 metr, umumiy maydoni 559,17 gektar;

8. Oydin shaharchasi umumiy perimetri 10369 metr, umumiy maydoni 351,13 gektar;

9. Samarqand shaharchasi umumiy perimetri 6863 metr, umumiy maydoni 128,16 gektar;

10. Paxtazor shaharchasi umumiy perimetri 7066 metr, umumiy maydoni 206,83 gektar;

11. Nuriston shaharchasi umumiy perimetri 15653 metr, umumiy maydoni 803,21 gektar;

12. Balxiyak qishlog‘i umumiy perimetri 34660 metr, umumiy maydoni 7374,56 gektar;

13. Navro’z qishlog‘i umumiy perimetri 35940 metr, umumiy maydoni 6594,84 gektar;

14. Nishon qishlog‘i umumiy perimetri 340895 metr, umumiy maydoni 130062,57 gektar;

15. Oqoltin qishlog‘i umumiy perimetri 68977 metr, umumiy maydoni 8793,26 gektar;

16. Oydinlik qishlog‘i umumiy perimetri 80217 metr, umumiy maydoni 21718,20 gektar;

17. Paxtazor qishlog‘i umumiy perimetri 44970 metr, umumiy maydoni 7061,64 gektar;

18. Qirqquloch qishlog‘i umumiy perimetri 42675 metr, umumiy maydoni 5579,54 gektar;

19. Shirinobod qishlog‘i umumiy perimetri 72703 metr, umumiy maydoni 20132,48 gektar;

Nishon tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik

elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlari palatasi Nishon tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.Davlat kadastrlari palatasining Nishon tumani filiali (I.Chorshanbiyev)ning Nishon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Nishon tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 22-oktyabrdagi 01/001/101-son yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Nishon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq;

ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati (O.Tojiyev) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari (S.Xaqnazarov, Z.Aramov, M.Sheroliyev, T.Xatamov, Sh.Xujaqulova, O.Abdujalilov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **TOG‘AYEV BOTIR NORMAHMADOVICH**

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-15-147-4-65-K/25 -son qaroriga
1-ilova


Nishon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Yangi Nishon shahar	10304	536,96
2	Tallimarjon shahar	8898	378,44
3	Nuriston shaharcha	15653	803,21
4	Paxtachi shaharcha	14935	559,17
5	Paxtazor shaharcha	7066	206,83
6	Sardoba shaharcha	10220	368,68
7	Oqoltin shaharcha	7916	260,55
8	Samarqand shaharcha	6863	128,16
9	Oydin shaharcha	10369	351,13
10	Nishon shaharcha	12337	390,53
11	Guliston shaharcha	6525	221,67
12	Paxtazor qishloq	44970	7061,64
13	Nishon qishloq	340895	130062,57
14	Oqoltin qishloq	68977	8793,26
15	Oydinlik qishloq	80217	21718,20
16	Shirinobod qishloq	72703	20132,48
17	Qirqquloch qishloq	42675	5579,54
18	Balxiyak qishloq	34660	7374,56
19	Navro'z qishloq	35940	6594,84
Jami		**832123**	**211522,41**

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-15-147-4-65-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo'yicha

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	***Mirishkor tumani yerlari***
B dan D gacha	***Qarshi tumani yerlari***
D dan E gacha	***G'uzor tumani yerlari***
E dan A gacha	***Turkmaniston***

Shartli belgilar

- Davlat chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Shaharlar va shaharchalar chegarasi
- Qishloqlar chegarasi